



Asliddin AMIRKULOV,

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: asliddinamirkulov905@gmail.com

P.f.d A.Rsaliyev taqrizi asosida

METHODOLOGICAL ASPECTS OF DEVELOPING STUDENTS' BILINGUAL COMPETENCE BASED ON THE CLIL APPROACH

Annotation

In the context of innovative education, where there is a significant increase in demand for CLIL technology compared to traditional teaching, an in-depth scientific analysis is being conducted on the theoretical foundations, methodological principles, and practical possibilities of CLIL (Content and Language Integrated Learning) technology in the process of developing students' bilingual competence. The CLIL approach, which is based on the integrated teaching of content and language, has been found to significantly contribute not only to foreign language acquisition but also to deeper comprehension of subject content, the development of professional communicative skills, and the enhancement of independent thinking. The study revealed that lessons organized on the basis of CLIL expand students' lexical competence, promote the correct and active use of professional terminology, improve both oral and written communication skills, and activate higher-order cognitive operations such as contextual thinking, analysis, comparison, and evaluation.

Key words: CLIL technology, bilingual competence, integration, content and language, higher education, methodology.

МЕТОДИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ БИЛИНГВАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ПОДХОДА CLIL

Аннотация

В условиях инновационного образования, когда наблюдается значительный рост интереса к технологии CLIL по сравнению с традиционным обучением, в процессе развития билингвальной компетентности студентов проводится углублённый научный анализ теоретических основ, методических принципов и практических возможностей технологии CLIL (Content and Language Integrated Learning). Установлено, что подход CLIL, основанный на интегрированном обучении содержанию и языку, наряду с усвоением иностранного языка способствует более глубокому пониманию учебного материала, формированию профессиональных коммуникативных навыков и развитию самостоятельного мышления студентов. В ходе исследования было выявлено, что занятия, организованные на основе CLIL, расширяют лексический запас студентов, способствуют правильному и активному использованию профессиональной терминологии, развитию устной и письменной речи, а также активизируют высшие когнитивные операции, такие как контекстуальное мышление, анализ, сравнение и оценивание.

Ключевые слова: Технология CLIL, билингвальная компетентность, интеграция, язык и содержание, высшее образование, методика.

CLIL YONDASHUVI ASOSIDA TALABALARNING BILINGVISTIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING METODIK JIHLTLARI

Аннотация

Innovatsion ta'limda CLIL texnologiyasining an'anaviy ta'limga nisbatan sezilarli talab ortayotgan bir davrda aynan talabalarining bilingvistik kompetentligini rivojlantirish jarayonida CLIL (Content and Language Integrated Learning) texnologiyasining nazariy asoslari, metodik tamoyillari va amaliy imkoniyatlari chuqur ilmiy tahlil qilinmoqda. CLILning mazmun va tilni integratsiyalashgan holda o'qitishga asoslangan yondashuvi talabalarda chet tilini o'zlashtirish bilan bir qatorda fan mazmunini chuqurroq anglash, kasbiy kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish va mustaqil fikrlash faoliyatini rivojlantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Tadqiqot davomida CLIL asosida tashkil etilgan darslar talabalarining leksik boyligini kengaytirishi, kasbiy terminlarni to'g'ri va faol qo'llashi, og'zaki hamda yozma nutqni rivojlantirishi bilan birga kontekstual fikrlash, tahlil qilish, solishtirish va baholash kabi yuqori darajadagi kognitiv operatsiyalarini faollashtirgani kuzatildi.

Kalit so'zlar: CLIL texnologiyasi, bilingvistik kompetentlik, integratsiya, til va mazmun, oliy ta'lim, metodika.

Kirish. XXI asrda ta'lim jarayonidan kutilayotgan asosiy talab – raqobatbardosh, global kommunikatsiya maydonida faol ishtirok eta oladigan, kasbiy muloqotda samarali fikr bildiruvchi va fanlararo integratsiya sharoitida mustaqil qaror qabul qila oladigan mutaxassislarni tayyorlashdir. Bunday kompetent shaxsni shakllantirish esa ta'lim jarayonida til, madaniyat va fanlararo bilimlarning integratsiyasiga asoslangan yondashuvlarni qo'llashni talab etadi. Xorijiy tilni nafaqat alohida lingvistik fan sifatida, balki kasbiy faoliyatni qo'llab-quvvatlovchi strategik vosita sifatida o'rgatish bugungi zamonaviy ta'lim paradigmasining ajralmas

qismiga aylanib bormoqda. Shu munosabat bilan CLIL (Content and Language Integrated Learning) texnologiyasi ko'p tillilikni qo'llab-quvvatlaydigan, talabalarda mazmun va tilni bir vaqtda o'zlashtirish imkonini beradigan innovatsion pedagogik konsepsiya sifatida ilmiy jamoatchilik tomonidan keng e'tirof etilgan.

CLIL – bu faqat metod emas, balki kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish bilan bir qatorda fanga oid mazmunni o'zlashtirishni chuqurlashtiruvchi integratsion ta'lim tizimidir. Tadqiqotchilar (Marsh, 2002; Coyle, Hood & Marsh, 2010) ta'kidlashicha, CLIL yordamida o'qitiladigan

fanlar talabalarida yuqori darajadagi kognitiv faoliyatni faollashtiradi, akademik til ko'nikmalarini (CALP) shakllantiradi va o'quv jarayonini real hayotiy vazifalarga moslashtiradi[1].

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ham so'nggi yillarda xorijiy til bilish darajasi yuqori bo'lgan, ikki yoki undan ortiq tillarda kasbiy faoliyat yurita oladigan mutaxassislarini tayyorlashga bo'lgan ehtiyoj keskin ortdi. Ta'lim sifatini oshirish bo'yicha qabul qilingan davlat dasturlari, xususan, oliy ta'limda chet tillarini o'qitishning yangi standartlari, ko'p tillilik siyosatini amaliyotga tatbiq etishga yo'naltirilgan. Shunga qaramay, an'anaviy til o'qitish metodlari ko'p hollarda talabalarining kasbiy faoliyatida talab etiladigan bilingvistik va kommunikativ kompetensiyalarni to'liq rivojlantira olmaydi. Bu esa o'quv jarayonida tilni real kontekst asosida qo'llash, fan mazmunini chet tilida ongli o'zlashtirish va kasbiy matnlarni tahlil qilish kabi ko'nikmalar yetarli shakllanmasligiga olib keladi.

Mazkur muammolarning barchasi fan va til integratsiyasiga asoslangan CLIL texnologiyasini oliy ta'lim jarayoniga joriy etish zarurligini ko'rsatadi. CLIL yondashuvi talabalarida nafaqat lingvistik savodxonlikni, balki kasbiy muloqot kompetentligini, interaktiv fikrlashni, mantiqiy tahlil qilish qobiliyatini va global ta'lim maydonida samarali faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan akademik ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bilingvistik kompetentlikning shakllanishida CLILning ustuvor o'rni, avvalo, uning mazmuniy-integrativ tabiatida namoyon bo'ladi: talaba chet tilini o'rganib, shu til vositasida fan mazmunini o'zlashtiradi, bilimga real kommunikativ vaziyatda ega bo'ladi va uni amaliyotda qo'llashni o'rganadi.

Adabiyotlar tahlili. Bilingvistik kompetentlik zamonaviy ta'lim jarayonida shaxsning integrativ kommunikativ salohiyatini belgilovchi muhim kompetensiya sifatida e'tirof etiladi. Tadqiqotchilar (Cummins, 2000; Hymes, 1972, Dalton-Puffer C. Discourse in CLIL Classrooms. John Benjamins Publishing, 2007.) ta'kidlashicha, til kompetentligini faqat grammatik bilimlar majmuasi sifatida talqin qilish yetarli emas; u lingvistik, kognitiv, madaniy va kommunikativ omillarning uyg'unlashuvi orqali shakllanadi[7].

Aynan ushbu maqolada (Coyle D., Hood P., Marsh D. CLIL: Content and Language Integrated Learning. Cambridge University Press, 2010, Mehisto P., Frigols M., Marsh D. Uncovering CLIL. Oxford University Press, 2008. Krashen S. Principles and Practice in Second Language Acquisition. 1982.) til kompetentligiga katta e'tibor qaratgan - bu leksik, grammatik, fonetik, sintaktik va pragmatik bilimlar majmuasining tizimli ravishda o'zlashtirilgan shaklidir. U til materialini qay darajada to'g'ri, aniq va mantiqiy qo'llashni belgilaydi. Til kompetentligi talabaning chet tilidagi asosiy struktur birliklarni to'g'ri ishlab chiqishi, murakkab nutq

Guruh	Talabalar soni	O'qitish usuli
Tajriba guruhi	28	CLIL asosida
Nazorat guruhi	27	An'anaviy metodlarda

Tajriba mashg'ulotlarining mazmuni Coyle va hamkorlari tomonidan ishlab chiqilgan 4C modeliga tayandi, ya'ni:

Content (Mazmun) - o'quv fanining konseptual mazmunini chet tili orqali o'zlashtirish;

Communication (Muloqot) - mazmun doirasida chet tilidan kommunikativ vosita sifatida foydalanish;

Cognition (Tafakkur) - yuqori darajadagi kognitiv operatsiyalarni (tahlil, sintez, baholash) rivojlantirish;

Culture (Madaniyat) - madaniyatlararo muloqot, global kompetensiyalarni shakllantirish.

CLIL asosida o'tilgan darslarda turli metodik vositalar: loyihaviy ishlanmalar, kontekstual muammoli

birliklarini qayta ishlashi hamda turli uslubiy kontekstlarda tilni mos qo'llay olishini ta'minlaydi. CLIL jarayonida mazkur kompetentlik kasbiy terminologiya, fanlararo leksika va akademik til (CALP) bilan boyitiladi[4].

O'zbek olimlaridan (Mo'minov C. O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: Filol.fan.dokt.... dis.avtoreferati. - Toshkent, 2000., Ravshanova L. Muloqot tizimining tarkibi va umumiy belgilari. Muloqot shakllari va xorijiy tillarga o'tish. Samarqand, 2002.) o'z kitoblarida kommunikativ kompetentlik haqida ta'kidlab o'tgan. Kommunikativ kompetentlik talabaning chet tilida fikr bildirish, muloqotga kirishish, so'zlovchining niyatini tushunish va nutq holatiga mos tarzda javob bera olish qobiliyatini o'z ichiga oladi [9].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot talabalarining bilingvistik kompetentligini CLIL texnologiyasi asosida rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish va uning samaradorligini aniqlashga qaratilgan bo'lib, ilmiy natijalarning ishonchligini ta'minlash maqsadida bir qator nazariy, empirik, eksperimental va statistik metodlardan foydalanildi. Metodlarning tanlanishi tadqiqotning maqsadi, predmeti va vazifalaridan kelib chiqqan holda belgilandi.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini CLIL texnologiyasi bo'yicha xalqaro ilmiy adabiyotlar, zamonaviy ta'lim konsepsiyalari va fan-til integratsiyasiga oid ilmiy qarashlar tashkil etdi. Xususan, CLILning ilmiy asoslarini yaratgan yetakchi tadqiqotchilar - Coyle, Marsh, Mehisto, Dalton-Puffer kabi olimlarning konseptual ishlari tizimli ravishda tahlil qilindi. Ularning 4C modeli, integratsiya nazariyasi, kognitiv yondashuvlari va CLILning lingvistik hamda pedagogik imkoniyatlarini yorituvchi ilmiy qarashlari tadqiqotning nazariy poydevorini mustahkamladi[3].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi davlat ta'lim standartlari, me'yoriy hujjatlar, konsepsiyalar, xorijiy tilni o'qitish bo'yicha milliy dasturlar o'rganilib, mazkur jarayonda ko'p tillilik siyosati va kompetensiyaviy yondashuvning o'rni tahlil qilindi. Fan-ta'lim integratsiyasiga oid metodik yondashuvlar, xususan, interdisiplinar va transdisiplinar integratsiya modellari solishtirilib, CLILning ular orasidagi o'rni ilmiy baho berildi [5].

Yarim strukturali suhbatlar o'qituvchilar va talabalar bilan o'tkazilib, CLILning amaliy qo'llanilishida yuzaga keladigan qiyinchiliklar, ehtiyojlar, motivatsion omillar, afzalliklar va takliflar aniqlashtirildi. Ushbu suhbatlar metodikaning amaliy jihatlarni yaxshiroq tushunishga xizmat qildi.

Empirik ma'lumotlar CLILning haqiqiy ta'sirini aniqlashda muhim manba bo'lib xizmat qildi.

Pedagogik eksperiment tadqiqotning asosiy bosqichini tashkil etdi. Tajriba bir semestr davomida olib borilib, unda ikki xil o'qitish modeli solishtirildi:

topshiriqlar, vizual grafik materiallar, fan terminologiyasini qo'llashga qaratilgan mashqlar, nutq amaliyotlari va ko'p bosqichli o'quv faoliyatlari qo'llanildi. Nazorat guruhida esa an'anaviy grammatik-tarjima metodi, reproduktiv mashqlar va standart o'quv topshiriqlari ustuvor bo'ldi. [8]

Eksperiment yakunida ikkala guruhning natijalari solishtirildi va CLILning ta'lim samaradorligiga ta'siri aniqlashtirildi.

Natijalar tahlili. Tadqiqot davomida CLIL texnologiyasining talabalarining bilingvistik kompetentligiga ta'sirini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Eksperiment boshida tajriba va nazorat guruhlari bilim ko'rsatkichlari deyarli bir xil bo'lib, farq 2-3% dan oshmadi.

Bu holat tajriba yakunlarining ishonchligini ta'minladi. Eksperiment oxirida olingan natijalar CLIL texnologiyasi talabalarining lingvistik, kognitiv va kommunikativ kompetentliklarining shakllanishiga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatganini ko'rsatdi.

Birinchiidan, lingvistik kompetentlik darajasida sezilarli o'sish kuzatildi. CLIL asosida o'qitilgan tajriba guruhida leksik minimumni o'zlashtirish 42%, og'zaki nutq ko'nikmalari 35%, kontekstual fikrlash 48%, kasbiy terminologiyani qo'llash esa 51% ga oshdi. Nazorat guruhida esa ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda 18%, 12%, 20% va 22% ni tashkil qildi. Bu tafavut CLILning asosiy afzalligi - til va mazmunning yagona jarayonda integratsiyalashuvi o'quvchilar tilni amaliy faoliyatda qo'llash orqali o'zlashtirishini ta'minlashini ko'rsatadi. Ayniqsa, kontekstual fikrlash va kasbiy terminlardan foydalanish darajasidagi yuqori o'sish CLILning kognitiv jarayonlarni rivojlantirishga xizmat qilishini isbotlaydi.

Ikkinchiidan, talabalar fan mazmunini o'zlashtirishda ham sezilarli rivojlanish qayd etildi. Chet tilidagi fanga oid matnlarni analitik tahlil qilish qobiliyati 30–35% ga oshgani, ko'p ma'noli terminlarni farqlash darajasi 27% ga yaxshilangani va ma'o'daniy-kontekstual tushunish 33% ga ko'tarilgani CLILning nafaqat til o'rgatish, balki fanning o'zini chuqur anglatishga xizmat qiladigan samarali metod ekanini ko'rsatdi. CLIL darslarida qo'llanilgan loyiha ishlari, muammoli vaziyatlar, amaliy topshiriqlar talabalarda mustaqil tahlil qilish va mantiqiy xulosa chiqarish ko'nikmalarini sezilarli darajada faollashtirdi.

Uchinchiidan, CLIL texnologiyasi talabalar motivatsiyasiga ham kuchli ta'sir ko'rsatdi. O'tkazilgan so'rovnomalar natijalariga ko'ra, 82% talaba CLIL asosidagi mashg'ulotlar an'anaviy darslarga nisbatan qiziqarliroq ekanini ta'kidladi. 76% talaba chet tilidagi fan materiallarini mustaqil o'rganishga tayyorligini bildirdi, 69% talaba esa CLILning kelajak kasbiy faoliyatida zarurligini qayd etdi. Bu natijalar CLILning motivatsion salohiyati yuqori ekanini, talabaning o'quv jarayonidagi faolligini, o'zlashtirishga bo'lgan ichki ehtiyojini kuchaytirishini ko'rsatadi [6].

Umuman olganda, tadqiqot natijalari CLIL texnologiyasining talabalarda lingvistik, kognitiv, kommunikativ va madaniyatlararo kompetentliklarni bir butun

integratsion jarayonda shakllantirishga yordam beruvchi samarali metodika ekanini ilmiy asosda tasdiqladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari CLIL texnologiyasining talabalarining bilingvistik kompetentligini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanini yaqqol namoyon qildi. Tajriba-sinov ishlari davomida olingan ko'rsatkichlar CLILning asosiy mohiyati - til va mazmunni birgalikda o'zlashtirish - ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshirishini isbotladi. Xususan, CLIL orqali chet tili fan mazmuni bilan uyg'un holda o'rgatilishi natijasida talabalar nafaqat lingvistik bilimlarini kengaytirdi, balki kasbiy terminologiyani anglash, uni amaliy nutqda qo'llash va fan mazmunini chuqur tahlil qilish qobiliyatlarini ham rivojlantirdi.

Ushbu metodika talabalarining og'zaki va yozma nutq faoliyatini faollashtirdi, kontekstual fikrlashni kuchaytirdi va chet tilida ilmiy muloqot yuritish ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirdi. Bundan tashqari, CLILning motivatsion ta'siri yuqori bo'lib, talabalarining mustaqil o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirdi, o'quv jarayonida faollik va tashabbuskorlikning ortishiga zamin yaratdi. Fan mazmunini tahlil qilish, muammoli vaziyatlarni yechish, loyihaviy ishlarni bajarish jarayonlari talabalar tafakkurining yuqori darajada faollashganini ko'rsatdi.

Shu bilan birga, CLIL talabalarda kommunikativ kompetentlikning shakllanishiga samarali ta'sir ko'rsatdi. Chet tilidagi muloqotning real kasbiy kontekstga asoslanishi talabalarining amaliy nutq faoliyatini boyitdi va ular uchun til o'rganish jarayonini maqsadga yo'naltirilgan, mazmunli va motivatsion jarayonga aylantirdi. Madaniyatlararo kompetentlik unsurlarining faollashishi esa global ta'lim muhitida faol ishtirok eta oladigan yosh mutaxassislarni shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qildi.

Tadqiqot natijalari CLILni O'zbekiston oliy ta'lim tizimida keng joriy etish zarurligini ko'rsatadi. Ushbu texnologiya ko'p tillilikni qo'llab-quvvatlaydi, akademik til ko'nikmalarini shakllantiradi va xalqaro ta'lim standartlariga mos raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga yordam beradi. CLILning metodik imkoniyatlari milliy ta'lim tizimida sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash, talabalarining kasbiy kompetentliklarini chuqurlashtirish hamda ularni xalqaro mehnat bozorida muvaffaqiyatli faoliyat yuritadigan mutaxassislariga aylantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Coyle D., Hood P., Marsh D. CLIL: Content and Language Integrated Learning. Cambridge University Press, 2010.
2. Marsh D. CLIL: An Introduction to Content and Language Integrated Learning. 2002.
3. Mehisto P., Frigols M., Marsh D. Uncovering CLIL. Oxford University Press, 2008.
4. Dalton-Puffer C. Discourse in CLIL Classrooms. John Benjamins Publishing, 2007.
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim konsepsiyasi, 2020.
6. G'ulomov A., To'xliyeva Sh. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent, 2019.
7. Cummins J. Language, Power and Pedagogy. Multilingual Matters, 2000.
8. Krashen S. Principles and Practice in Second Language Acquisition. 1982.
9. Mo'minov C. O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: Filol.fan.dokt.... dis.avtoreferati . – Toshkent, 2000.
10. Ravshanova L. Muloqot tizimining tarkibi va umumiy belgilari. Muloqot shakllari va xorijiy tillarga o'tish. Samarqand, 2002.